



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdamova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitara Baxodir qizi	
IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOIYILLARI.....	68
Gapparov Azim Qayumovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....	72
Zaripov Shoxboz Alijon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	75
Xolmatova Asila Menglimurod qizi	
РОЛЬ GREEN BONDS В МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	81
Н.Т. Бекназарова	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT.....	86
Shaymatova Nargiza Ashurovna	



BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT

Shaymatova Nargiza Ashurovna

Termiz davlat universiteti,
Moliya kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD
ORCID: 0009-0002-9709-3065

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekologik boshqaruv va ekologik auditning nazariy-uslubiy asoslari, shuningdek, ularning barqaror rivojlanishni ta'minlashdagi o'rni yoritilgan. Ekologik menejment tizimining mohiyati, asosiy vazifalari hamda xalqaro standartlar, xususan ISO 14001 talablari asosida tahliliy yondashuv amalga oshirilgan. Ekologik audit korxonalar faoliyatining ekologik qonunchilik va me'yoriy talablarga muvofiqligini baholashning samarali vositasi sifatida ko'rib chiqilgan.

Shuningdek, maqolada O'zbekistonda, jumladan Surxondaryo viloyatida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanish hamda ekologik xavflarning oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari ekologik boshqaruv va audit tizimlarini joriy etish korxonalarning ekologik samaradorligini oshirish, raqobatbardoshligini kuchaytirish hamda uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Kaliit so'zlar: ekologik boshqaruv, ekologik audit, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, barqaror rivojlanish, ISO 14001, ekologik xavflarning oldini olish, ekologik samaradorlik.

Abstract. This article explores the theoretical and methodological foundations of environmental management and environmental audit and their role in ensuring sustainable development. The essence, key objectives, and functional features of environmental management systems are analyzed with particular emphasis on international standards such as ISO 14001. Environmental audit is considered an effective mechanism for assessing enterprise compliance with environmental legislation and regulatory requirements.

The paper also highlights the ongoing efforts in the Republic of Uzbekistan, including the Surkhondaryo region, aimed at strengthening environmental protection, promoting the rational and efficient use of natural resources, and preventing environmental risks. The findings demonstrate that the implementation of environmental management and audit systems enhances environmental performance, strengthens competitiveness, and contributes to long-term economic sustainability.

Key words: environmental management, environmental audit, environmental protection, rational use of natural resources, sustainable development, ISO 14001, prevention of environmental risks, environmental performance.

Аннотация. В статье раскрываются теоретико-методологические основы экологического менеджмента и экологического аудита, а также их значение в обеспечении устойчивого развития. Проанализированы сущность системы экологического менеджмента, её ключевые задачи и роль международных стандартов, в частности ISO 14001. Экологический аудит рассматривается как эффективный механизм оценки соответствия деятельности предприятий требованиям экологического законодательства и нормативной базы.



Особое внимание уделено проводимой в Республике Узбекистан, в том числе в Сурхандарьинской области, последовательной работе по охране окружающей среды, рациональному использованию природных ресурсов и предупреждению экологических рисков. Сделан вывод о том, что внедрение систем экологического менеджмента и аудита способствует повышению экологической результативности предприятий, укреплению их конкурентных позиций и обеспечению устойчивого экономического развития.

Ключевые слова: экологический менеджмент, экологический аудит, охрана окружающей среды, рациональное использование природных ресурсов, устойчивое развитие, ISO 14001, предупреждение экологических рисков, экологическая результативность.

KIRISH

Ekologik menejment — korxona, tashkilot va hududlar miqyosida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan zamonaviy boshqaruv tizimidir. Uning asosiy maqsadi iqtisodiy faoliyat va ekologik barqarorlik o'rtasida muvozanatni ta'minlashdan iborat. Ekologik menejment tizimida ISO 14001 kabi xalqaro standartlar muhim o'rin tutadi, ular korxonalarda ekologik nazoratni kuchaytirish va resurslarni samarali boshqarish mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ekologik audit ekologik menejment tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, tabiatni muhofaza qilish sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, ishlab chiqarish jarayonlari va tashkilot faoliyatining ekologik talablar hamda amaldagi qonunchilikka muvofiqligini baholash jarayonidir. U nafaqat mavjud xatarlarni aniqlash, balki ularning oldini olish, resurslardan tejankor foydalanish va chiqindilar hajmini optimallashtirishga ham xizmat qiladi. Shu jihatdan ekologik audit korxonalarining ekologik va iqtisodiy samaradorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Xalqaro tajribada, xususan Germaniya, Yaponiya, AQSh hamda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ekologik audit tizimi keng joriy etilgan va amaliyotda samarali qo'llanilmoqda. O'zbekistonda ham ekologik nazorat va ekologik menejment sohasini rivojlantirishga qaratilgan qator qonunlar, davlat dasturlari va institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Mahalliy korxonalarda ISO 14001 standartlarini bosqichma-bosqich joriy etish hamda ekologik auditni tizimli ravishda o'tkazish mamlakatning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

XXI-asrda jahon hamjamiyati oldida turgan dolzarb masalalardan biri — atrof-muhit muhofazasini mustahkamlash va iqlim barqarorligini ta'minlashdir. Tabiiy resurslardan keng ko'lamda foydalanish, sanoat ishlab chiqarish hajmining ortishi hamda demografik o'sish ekologik boshqaruv tizimlarini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shu bois barqaror rivojlanish strategiyalarida ekologik menejment va ekologik audit alohida ahamiyat kasb etadi. Ular korxona va tashkilotlarda ekologik ta'sirni kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashning samarali mexanizmlaridan biridir.

Atrof-muhitni boshqarish sog'lom ekologik muhitni shakllantirishning muhim omili bo'lib, nafaqat O'zbekistonda, balki global miqyosda barqaror rivojlanishning asosini tashkil etadi. Samarali ekologik boshqaruv tizimi korxona xarajatlarini optimallashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada atrof-muhitni boshqarish tizimining mazmun-mohiyati, asosiy maqsad va vazifalari tahlil qilinadi, shuningdek, turli mahsulotlar ishlab chiqarishda ekologik muammolarni hal etishning zamonaviy usullari va innovatsion yondashuvlari o'rganiladi.

Surxondaryo viloyati O'zbekiston Respublikasining janubiy qismida, Afg'oniston bilan chegaradosh hududda joylashgan bo'lib, mamlakatning muhim agrar va strategik hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyatning umumiy maydoni 20,1 ming km², aholisi esa 2,7 milliondan ortiqni tashkil etadi. Geografik joylashuvi, iqlim sharoiti va tabiiy resurslari tufayli hududda qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalari barqaror rivojlanib bormoqda.

Aholi sonining ortishi, ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi va intensiv texnologiyalarning qo'llanilishi hududda ekologik boshqaruvni yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, ekologik menejment va audit tizimini samarali tashkil etish, tabiatni muhofaza qilish mexanizmlarini kuchaytirish hamda resurslardan tejankor foydalanishni ta'minlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik menejment va ekologik audit masalalarining ilmiy-nazariy hamda uslubiy asoslarini tadqiq etish va ularni takomillashtirish yo'nalishida qator xorijiy olimlar tomonidan keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, I.S. Maslennikova, L.M. Kuznesov, M.N. Strukova, L.V. Strukova, T.A. Trifonova, M.Ye. Ilina, Yu.V. Babina, A.L. Bobrov va boshqalar ekologik menejmentni korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim strategik boshqaruv instrumenti sifatida baholaydilar. Ularning tadqiqotlarida ekologik



menejment tizimi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavflarni minimallashtirishga xizmat qiluvchi kompleks boshqaruv mexanizmi sifatida talqin etilgan.

ISO 14001 xalqaro standartiga bag'ishlangan ilmiy ishlarda ushbu standartni joriy etish orqali korxonalarda ekologik ko'rsatkichlarni yaxshilash, resurslardan samarali foydalanish hamda atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish imkoniyatlari asoslab berilgan [11, 13, 14, 15]. Mazkur tadqiqotlar ekologik menejment tizimining institutsional va amaliy ahamiyatini ochib beradi.

Respublikamiz olimlaridan I.A. Karimov, B. Raximov, T.J. Jumaev, Z.Y. Hoshimov, O.A. Ro'ziev, A.N. Nigmatov, S.Sh. Tashpulatov, Sh.N. Muxamedov, N.A. Xasanova va boshqalar ekologik audit masalalarini mustaqil baholash va nazorat mexanizmi sifatida o'rganib, uning korxona faoliyatidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berganlar [9, 10, 24, 25]. Ularning izlanishlarida ekologik auditning huquqiy asoslari, tashkiliy mexanizmlari hamda iqtisodiy samaradorlikka ta'siri yoritilgan.

MDH davlatlari hamda O'zbekiston olimlarining ilmiy ishlarida ekologik menejment va audit tizimini joriy etishda huquqiy bazaning mustahkamligi, davlat nazorati mexanizmlari va iqtisodiy rag'batlantirish vositalarining muhim o'rni qayd etilgan. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar asosan umumiy nazariy va me'yoriy jihatlariga qaratilgan bo'lib, hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda ekologik menejment va audit tizimlarini amaliy qo'llash masalalari yanada chuqurroq o'rganishni talab etadi.

Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda ekologik menejment va audit tizimlari mahalliy sharoit, xususan hududiy rivojlanish omillari asosida tahlil qilinib, ularni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu esa mavzuning nazariy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez usullari yordamida ekologik menejment va ekologik auditning nazariy asoslari, ularning mazmun-mohiyati hamda o'zaro bog'liqligi o'rganildi. Ushbu usullar orqali ilmiy qarashlar tizimlashtirildi va konseptual xulosalar shakllantirildi.

Qiyosiy taqqoslash usuli asosida xorijiy davlatlar hamda O'zbekistonda ekologik menejment va audit tizimlarini joriy etish amaliyoti o'zaro solishtirildi. Natijada samarali boshqaruv mexanizmlari, ilg'or tajribalar va amaliy yondashuvlarning ustun jihatlari aniqlanib, ularni milliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari belgilandi.

Shuningdek, statistik tahlil usuli orqali mavjud ko'rsatkichlar dinamikasi o'rganildi, hujjatli tahlil yordamida amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar va rasmiy manbalar tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda dunyodagi global ekologik vaziyat ko'p jihatdan insonning xo'jalik faoliyati bilan bog'liq. Sanoat ishlab chiqarishining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish borasida muayyan ijobiy natijalarga erishilganiga qaramay, ekologik barqarorlikni ta'minlash masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Bu holat ekologik boshqaruv tizimlarini yanada takomillashtirish hamda barqaror rivojlanish tamoyillarini keng joriy etishni talab etadi.

Ilgari ko'plab kompaniyalar atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarini asosan me'yoriy talablar doirasida ko'rib chiqqan bo'lsalar, bugungi kunda ekologik mas'uliyat korporativ strategiyaning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Zamonaviy yondashuvga ko'ra, ekologik menejment iqtisodiy samaradorlik bilan uyg'un holda olib borilishi lozim.

1980-yillardan boshlab inson yashash muhiti va tabiiy resurslarni muhofaza qilish sanoat korxonalari faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Natijada sanoatni rivojlantirish bilan bog'liq ekologik masalalarni hal etishda innovatsion va tizimli yondashuvlar shakllandi.

Har bir korxona amaldagi ekologik qonunchilik talablariga rioya qilishi zarur. Ekologik me'yorlarga amal qilish nafaqat tabiiy muhitni asrash, balki korxona xodimlari va aholining sog'lig'ini muhofaza qilish, shuningdek, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda iste'molchilar ekologik jihatdan mas'uliyatli ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga intilmoqda, bu esa "yashil iqtisodiyot" tamoyillarining kengayishiga zamin yaratmoqda.

Atrof-muhitni boshqarish zamonaviy sharoitda ekologik xavfsizlikni ta'minlashning samarali mexanizmlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Atrof-muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmlari O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 12-noyabrda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan va 2013-yil 12-dekabrda Senat tomonidan ma'qullangan "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinadi. Ushbu hujjatda quyidagi yo'nalishlar belgilangan:

- Sanoat korxonalarida atmosfera chiqindilari monitoringi;
- Suv resurslarining sifatini nazorat qilish;



- Yer resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash;
- Atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarini rejalashtirish va moliyalashtirish;
- Tabiiy resurslardan foydalanish me'yorlarini belgilash;
- Ekologik to'lovlar va me'yoriy stavkalarni aniqlash;
- Resurs tejovchi texnologiyalar va muqobil energiya manbalarini joriy etishni rag'batlantirish;
- Ekologik sug'urta, sertifikatlash va audit tizimlarini rivojlantirish.

“Menejment” atamasi qadimgi inglizcha “manage” (lotincha “manus” — qo'l) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, boshqaruv ma'nosini anglatadi. Vaqt o'tishi bilan ushbu tushuncha ekologiya yo'nalishi bilan integratsiyalashib, “ekologik menejment” atamasi shakllandi.

Ekologik menejment — bu korxona yoki tashkilot faoliyatida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan tejamkor foydalanish va chiqindilar hajmini optimallashtirishga qaratilgan boshqaruv tizimidir.

Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Korxona faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini baholash;
- Chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash jarayonlarini rivojlantirish;
- Energiya va suv resurslaridan samarali foydalanish;
- Xalqaro ekologik standartlarga muvofiq boshqaruvni yo'lga qo'yish.

Ekologik audit esa xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan ekologik me'yoriy hujjatlar va qonunchilik talablariga rioya etilishini mustaqil baholash jarayoni bo'lib, ekologik faoliyatni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Xalqaro miqyosda ekologik menejment sohasida keng qo'llaniladigan standartlar quyidagilar hisoblanadi:

- ISO 14001 — ekologik menejment tizimi standarti;
- EMAS (Eco-Management and Audit Scheme) — Yevropa Ittifoqining ekologik boshqaruv va audit tizimi;
- ISO 50001 — energiya menejmenti standarti [6, 12].

Masalan, Germaniyadagi Volkswagen konsernida ISO 14001 joriy etilgach, ishlab chiqarish jarayonlarida chiqindilar hajmi sezilarli darajada qisqartirilgan.

Atrof-muhit siyosati tashkilotning ekologik yo'nalishdagi umumiy strategik maqsadlarini belgilaydi va yuqori rahbariyat tomonidan tasdiqlanadi. U ekologik maqsad va vazifalarni aniqlash hamda amaliy choralarni rejalashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda sanoat korxonalarida ISO 14001 standartini joriy etish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati”da ekologik menejment tizimi joriy etilib, chiqindilarni qayta ishlash ko'rsatkichlari oshirilgan. Shuningdek, “Artel” kompaniyasida 2022-yildan boshlab ekologik menejment tizimi yo'lga qo'yilib, energiya samaradorligi yaxshilangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ekologik barqarorlik davlat va jamiyatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining 09.12.1992-yildagi “Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida”gi 754-XII-sonli Qonuni¹, O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 27.12.2013-yildagi “Ekologik nazorat to'g'risida”gi O'RQ-363-sonli Qonuni¹, O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 05.04.2002-yildagi “Chiqindilar to'g'risida”gi 362-II-sonli Qonun² ekologik boshqaruvning huquqiy asosini tashkil etadi [1–5].

Ekologik boshqaruv tizimida:

- Oliy Majlis — ekologik qonunchilikni shakllantiradi;
- Vazirlar Mahkamasi — davlat dasturlarini amalga oshiradi;
- Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi — markaziy vakolatli organ sifatida faoliyat yuritadi;
- Davlat inspeksiyalari va mahalliy hokimiyatlar — monitoring va amaliy nazoratni ta'minlaydi.

O'zbekistonda ekologik barqarorlikni ta'minlash yo'nalishida tizimli islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, quyidagi masalalar ustuvor e'tibor talab etadi:

- Orolbo'yi hududi – suv sathining keskin kamayishi natijasida katta maydonlarda cho'llanish jarayoni yuzaga kelgan. Bugungi kunda hududni rekultivatsiya qilish va yashil zonalarini kengaytirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

- Atmosfera havosi sifati – Toshkent, Olmaliq, Navoiy va Farg'ona kabi sanoatlashgan hududlarda monitoring natijalari havo sifatini yaxshilash bo'yicha qo'shimcha choralar zarurligini ko'rsatmoqda.

- Suv resurslarini boshqarish – Amudaryo va Sirdaryo havzalarida suv oqimini samarali boshqarish hamda tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish dolzarb vazifalardan biridir.

- Maishiy va sanoat chiqindilari – chiqindilarni saralash va qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud.

- Qishloq xo'jaligida agrotexnologiyalar – mineral o'g'it va himoya vositalaridan ilmiy asosda foydalanishni kengaytirish zarur.

1 <https://lex.uz/ru/docs/-107115?ONDATE2=01.01.2024&action=compare>

2 <https://test.lex.uz/en/docs/-2304953>



Ekologik jihatdan alohida e'tibor talab etadigan hududlar:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati – Orolbo'yi hududini tiklash va chang-tuz ko'chishining oldini olish bo'yicha keng ko'lamlı loyihalar amalga oshirilmoqda.
- Farg'ona vodiysi – aholi zichligi yuqori bo'lganligi sababli ekologik infratuzilmani modernizatsiya qilish dolzarbdır.
- Navoiy viloyati – sanoat korxonalarida ekologik toza texnologiyalarni joriy etish jarayoni bosqichma-bosqich kengaymoqda.
- Toshkent shahri – transport oqimlarini tartibga solish va ekologik transportni rivojlantirish yo'nalishida chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.
- Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari – suv resurslaridan samarali foydalanish va irrigatsiya tizimlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Surxondaryo viloyatida atmosfera havosiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar quyidagilar hisoblanadi:

- Denov, Sherobod va Termiz shaharlaridagi sement hamda qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari;
- Avtotransport vositalari, ayniqsa yuk va yo'lovchi tashish faoliyati;
- Issiqxona xo'jaliklari va yoqilg'i yonish jarayonlari.

Termiz shahrida olib borilgan monitoring natijalariga ko'ra, atmosfera havosida chang zarrachalari, azot dioksidi va uglerod oksidi miqdori ayrim davrlarda me'yoriy ko'rsatkichlarga yaqinlashgani kuzatilgan. Bu holat ekologik nazoratni kuchaytirish va zamonaviy filtrlash texnologiyalarini joriy etish zaruratini ko'rsatadi. Atmosfera havosining sifatini yaxshilash aholi salomatligini mustahkamlash va yashash sharoitini yanada qulaylashtirishga xizmat qiladi.

Viloyatning asosiy suv manbai — Amudaryo va uning irmoqlaridir. Suv resurslaridan asosan qishloq xo'jaligida foydalaniladi. Mavjud sharoit suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish hamda yo'qotishlarni kamaytirish zaruratini ko'rsatmoqda. Ayrim hududlarda ichimlik suvining sifatini yaxshilash bo'yicha infratuzilmaviy loyihalar amalga oshirilmoqda.

Qishloq xo'jaligida mineral o'g'it va pestitsidlardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsiz agrotexnologiyalarni keng joriy etish suv manbalarini muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirda viloyatda tomchilatib sug'orish texnologiyasi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda va umumiy maydonning qariyb 15–20 foizida qo'llanilmoqda. Ushbu ko'rsatkichni oshirish suv resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekiston ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida qator xalqaro hujjatlarga qo'shilgan va ularning talablarini bosqichma-bosqich amalga oshirib kelmoqda:

1. Kioto protokoli;
2. Parij kelishuvi;
3. Biologik xilma-xillik to'g'risidagi konvensiya;
4. Stokgolm konvensiyasi.

Shuningdek, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida ISO 14001 ekologik menejment standarti joriy etilmoqda. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida EMAS (Environmental Management and Audit Scheme) ekologik audit tizimi sifatida keng qo'llaniladi.

Xalqaro tajribada:

- Yaponiya "Zero Waste" konsepsiyasi orqali chiqindilarni maksimal qayta ishlashni yo'lga qo'ygan;
- Germaniya energiya tejamlor texnologiyalarni keng joriy etishga ustuvor ahamiyat beradi;

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ekologik menejment va ekologik audit korxonalar faoliyatida atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Atrof-muhit holatining o'zgarishi, tabiiy resurslardan foydalanish hajmining ortishi va yashash muhiti sifatini saqlash masalalari bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, ushbu yo'nalishda tizimli yondashuvni talab etmoqda.

Biroq, bugungi kunda jamiyatda atrof-muhitni boshqarish tizimlari, mahsulotning ekologik xavfsizligi, resurs tejovchi texnologiyalar, kompaniyaning ekologik nufuzi kabi tushunchalarga qiziqish ortib bormoqda. Ushbu tushunchalar hali barcha qatlamlar tomonidan to'liq anglab yetilmagan bo'lsa-da, ishlab chiqaruvchilar o'rtasida ularga bo'lgan e'tibor kuchaymoqda. Ekologik masalalar "ishlab chiqaruvchi-iste'molchi", "korxona-davlat", "mahsulot-bozor" munosabatlarining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Mavjud vazifalarni izchil hal etish maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- barcha yirik korxonalarda iso 14001 standartlarini bosqichma-bosqich joriy etish;
- chiqindilarni ajratib yig'ish va qayta ishlash tizimini rivojlantirish;



- davlat va xususiy sektor hamkorligida “yashil texnologiyalar”ni kengaytirish;
- ekologik auditni xalqaro standartlarga mos ravishda amalga oshirish;
- yashil energiya manbalarini rivojlantirish;
- ekologik madaniyatni oshirish.

Har bir kompaniya va tashkilot milliy va xalqaro bozorlarda o'z mavqeini yaxshilashga intiladi. Bu jarayonda nafaqat sifat, narx va xizmat ko'rsatish darajasi, balki tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish siklining barcha bosqichlarida ekologik ta'sirni monitoring qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga ixtiyoriy ekologik sertifikatlash, korxonada atrof-muhitni boshqarish tizimini joriy etish, ekologik samaradorlikni baholash va mahsulotlarni xalqaro standartlarga muvofiq sertifikatlash orqali erishish mumkin.

Shunday qilib, ishlab chiqaruvchi ekologik xavflarni kamaytirishga yo'naltirilgan faoliyatni amalga oshirib, atrof-muhitga mas'uliyatli yondashuvni namoyon etadi. Bu esa hamkor kompaniyalar, ayniqsa xorijiy sheriklar bilan o'zaro munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ekologik boshqarish atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan tizimli mexanizmdir. EMS atrof-muhit samaradorligini va umumiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun rasmiy asos bo'lib xizmat qiladi hamda chiqindilarni qisqartirish va resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratadi.

Keyingi tadqiqotlar atrof-muhitni boshqarish tizimlarini takomillashtirish, yangi texnologiyalar va uskunalarni joriy etish hamda ularning samaradorligini baholashga qaratilgan bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda ekologik siyosat qonunchilik va amaliy dasturlar bilan ta'minlangan. Shu bilan birga, Orolbo'yi hududini tiklash, havo va suv resurslari sifatini yaxshilash, chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish kabi yo'nalishlar izchil va kompleks yondashuvni talab etadi.

Xorijiy standartlar (ISO 14001, EMAS) va xalqaro kelishuvlar asosida ish olib borish, ekologik auditni muntazam va samarali o'tkazish amaliyotini kuchaytirish, huquqiy va iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, ekologik sohada mutaxassislar tayyorlash va ularning malakasini oshirish ekologik barqarorlikni ta'minlashning samarali yo'nalishlaridir.

Ushbu takliflarni amaliyotga joriy etish ekologik menejment va audit samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 01.05.2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining 09.12.1992 yildagi “Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida”gi 754-XII-sonli Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-107115?ONDATE2=01.01.2024&action=compare>
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 27.12.2013-yildagi “Ekologik nazorat to'g'risida”gi O'RQ-363-sonli Qonuni. <https://test.lex.uz/en/docs/-2304953>
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 05.04.2002-yildagi “Chiqindilar to'g'risida”gi 362-II-sonli Qonun. <https://lex.uz/en/docs/-42423>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019-yildagi “Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi” PQ-4477-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-4539502>
6. ISO 14001:2015 Environmental management systems – Requirements with guidance for use.
7. United Nations. Paris Agreement. – 2015.
8. UNEP (United Nations Environment Programme) йиллик ҳисоботлари.
9. Каримов И.А. Барқарор ривожланиш ва экология масалалари. – Т.: 2000.
10. Рахимов Б. Экологик ҳуқуқ. – Т.: 2018.
11. Масленникова И. С., Кузнецов Л. М. Экологический менеджмент и аудит: учебник и практикум для академического бакалавриата. – М.: Издательство Юрайт, 2016. – 328 с.
12. Системы экологического менеджмента – Требования и руководство по применению (ISO 14001:2015). Национальный стандарт РФ. ГОСТ Р ИСО 14001- 2016. М.: Стандартинформ, 2016. – 40 с.
13. Струкова М. Н., Струкова Л. В. Экологический менеджмент и аудит: учеб. пособие. М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2016. – 80 с.
14. Трифонова Т.А., Илина М.Е. Жизненный цикл и его оценка как инструмент экологического менеджмента. Владимир: «Аркаим», 2016 – 68 с.
15. Бабина Ю.В., Бобров А.Л. Основы экологического менеджмента. М.: Диалог-МГУ. 2000
16. Бобра Т.В. Экологический менеджмент и аудит. Симферопол, Доля. 2013. – 340 с.
17. Дерягина С. Е., Астафеева О. В., Струкова М. Н., Струкова Л. В. Экологический менеджмент на предприятии. Екатеринбург: ИПЭ УрО РАН – УГТУ УПИ, 2007. – 146 с.
18. Марин Е.О. Организационно-правовой механизм экологического аудита. – Волтерс Клувер, 2010.
19. Экологический менеджмент и аудит. Методические указания по выполнению контрольной работы. Составитель: И.В. Гладун. Хабаровск: Тихоокеанский гос. Ун-т. 2015. – 59 с.
20. Основы подготовки аудиторов-экологов и проведения экологического аудита / под ред. З.Н. Замятиной. Барнаул: ООО Азбука. 2009.
21. Юрецкий С. В., Канев В.В. Экологический менеджмент: учеб. пособие. – Ухта: УГТУ, 2015. – 108 с.



22. Analysing the success drivers of EMAS in selected Member states. Three case studies. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2016
23. Moving towards a circular economy with EMAS. Best practices to implement circular economy strategies (with case study examples). Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.
24. Т.Ж. Жумаев, З.Й. Ношимов, О.А. Рўзиев “Экологик менежмент” Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, Тошкент 2004.
25. А.Н.Нигматов, С.Ш.Ташпулатов, Ш.Н.Мухамедов, Н.А.Хасанова. Наёт фаолияти хавфсизлиги ва экологик менежмент (чизмалар, тушунчалар, фактлар ва рақамларда). Дарслик.- Т., 2015. 207 б.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
